



**«TASDIQLAYMAN»**  
**“Biznesni rivojlantirish banki” ATB**  
**Kredit bosh direktori:**  
**B.Mullajanov**

«3» iyul 2026 y.  
№ 449

**Yuridik shaxslarni tekshirish, sanksiya ro‘yxatlari bo‘yicha skrining va biznes shaffofligini ta‘minlash tizimi (kontragentlarni tekshirish platformasi) xaridi bo‘yicha**

**TEXNIK TOPSHIRIQ**

<b>№</b>	<b>Asosiy ma‘lumotlar va talablar nomi</b>	<b>Ma‘lumotlar va talablar mazmuni</b>
<b>1</b>	<b>Buyurtmachi</b>	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
<b>2</b>	<b>Bajariladigan ish yoki ko‘rsatiladigan xizmat turi</b>	Yuridik shaxslarni tekshirish, sanksiya ro‘yxatlari bo‘yicha skrining va biznes shaffofligini ta‘minlash tizimi (kontragentlarni tekshirish platformasi) xaridi.
<b>3</b>	<b>Tanlov savdolarini o‘tkazish uchun asos</b>	<ul style="list-style-type: none"><li>– O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi 684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni;</li><li>– O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 276-sonli qarori;</li><li>– O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida” hamda “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlari;</li><li>– Bank boshqaruvining 2025-yil 11-dekabrda 155/4-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Biznesni rivojlantirish banki” ATB tizimida xaridlarni amalga oshirish” tartibi;</li><li>– Buyurtmachining kontragentlarni tekshirish va biznes shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha ichki tartibi (reglamenti);</li><li>– Kreditlarni ma‘qullash departamentining 2026-yil 3-iyuldagi IF-3462-sonli bildirishnomasi</li></ul>
<b>4</b>	<b>Buyurtmachi manzili</b>	100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A. Navoiy ko‘chasi, 18-A uy.
<b>5</b>	<b>Xizmatlarning batafsil</b>	<u>Ushbu xizmat doirasida quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:</u>

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
	<p><b>tarkibi</b></p>	<ul style="list-style-type: none"> <li>– STIR (INN), PINFL, IFUT (OKED) kodi yoki tashkilot nomi bo'yicha yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida qidirish va taqdim etish;</li> <li>– ochiq manbalar va davlat reyestrlaridan (Soliq qo'mitasi, statistika organlari, davlat xaridlari portali va boshqa manbalar) ma'lumotlarni doimiy ravishda yig'ish, boyitish va yangilab borish;</li> <li>– har bir kontragent uchun ishonchlilik reytingini ("svetofor" indikatori: past, qoniqarli, o'rta va yuqori darajalar) avtomatik hisoblash va risk zonalarini aniqlash;</li> <li>– kontragentlar bo'yicha xulosa va tavsiyalarni tuzilgan (strukturalangan) ko'rinishda taqdim etish;</li> <li>– buyurtmachining ichki axborot tizimlariga integratsiya qilish va veb-saytga o'rnatish imkoniyatini ta'minlash.</li> </ul> <p><b>Ijrochining majburiyatlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– Xalqaro standartlarga mos, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan va axborot xavfsizligi talablariga rioya qilgan holda tizimni taqdim etish;</li> <li>– buyurtmachining tizimlariga integratsiya qilish uchun dasturiy interfeys (API) va texnik hujjatlarni taqdim etish;</li> <li>– tizimning 24/7 rejimda uzluksiz ishlashini ta'minlash;</li> <li>– ma'lumotlar bazasining dolzarbligini saqlash va davlat reyestrlaridan ma'lumotlarni belgilangan davriylikda yangilab borish;</li> <li>– tizim ishlashida yuzaga keladigan xatoliklarni aniqlash yoki buyurtmachi tomonidan aniqlangan kamchiliklarni bepul bartaraf etish;</li> <li>– shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashda amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilish.</li> </ul> <p><b>Ijrochining huquqlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– tizim ishlashini yaxshilash uchun yangi funksional imkoniyatlarni taklif etish;</li> <li>– dasturiy ta'minot kodlari va arxitekturasini o'zida saqlab qolish;</li> <li>– buyurtmachini oldindan ogohlantirgan holda tizimni takomillashtirish va yangilab borish;</li> <li>– kechiktirib bo'lmaydigan xato va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tizimni ma'lum vaqtga to'xtatish;</li> <li>– buyurtmachi tomonidan beriladigan takliflarni asoslangan holda rad etish;</li> <li>– tizim serveriga buyurtmachi tomonidan DDoS hujum</li> </ul>

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
		<p>qilinayotgani aniqlansa, ogohlantirishsiz bloklash.</p> <p><b>Buyurtmachining huquqlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– tizimni o'z axborot tizimlariga integratsiya qilishda yordam yoki yo'riqnoma so'rash va yuzaga keladigan muammolarni Ijrochi bilan birgalikda bartaraf etish;</li> <li>– tizimning 24/7 rejimda barqaror va xatosiz ishlashini talab qilish;</li> <li>– tizimda yuzaga keladigan xatoliklarni bepul tuzatishni talab qilish;</li> <li>– ma'lumotlar bazasining dolzarbligi va yangilanish davriyligi to'g'risida hisobot so'rash;</li> <li>– tizim o'tkazgan test natijalari va xavfsizlik standartlariga muvofiqligi to'g'risidagi hujjatlarni so'rash.</li> </ul> <p><b>Tizimga qo'yiladigan funksional talablar:</b></p> <p><b>1. Kontragentni tekshirish va ma'lumotlarni taqdim etish moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– STIR, PINFL, IFUT (OKED) kodi yoki nom bo'yicha qidirish imkoniyati;</li> <li>– ro'yxatdan o'tish ma'lumotlari, yuridik manzil, aloqa ma'lumotlari va faoliyat turlarini ko'rsatish;</li> <li>– ta'sischilar, mulkdorlar va rahbariyat to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etish;</li> <li>– moliyaviy ko'rsatkichlar, soliq to'lovlari va o'tkazilgan tekshiruvlar to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish;</li> <li>– faoliyat turi bo'yicha litsenziya va ruxsatnomalar mavjudligini ko'rsatish.</li> </ul> <p><b>2. Ishonchlilik reytingi va risklarni baholash moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragentning ishonchlilik darajasini to'rt bosqichli indikatorida (past, qoniqarli, o'rta, yuqori) avtomatik ko'rsatish;</li> <li>– risk zonalarini aniqlash va xavfsiz hamkorlik uchun tavsiyalar berish;</li> <li>– soliq qarzdorligi va boshqa risk omillarini hisobga olish.</li> </ul> <p><b>3. Sanksiya ro'yxatlari bo'yicha skrining moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragentning milliy va xalqaro sanksiya hamda cheklovlar ro'yxatlariga kiritilganligini tekshirish;</li> <li>– "ishonchsiz (nomunosib) ijrochilar" va shubhali sub'ektlar ro'yxatlari bo'yicha tekshirish.</li> </ul> <p><b>4. Sud va soliq tarixi moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragentning sud ishlari va iqtisodiy nizolar tarixini taqdim etish;</li> <li>– soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha tarixiy</li> </ul>

№	Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi	Ma'lumotlar va talablar mazmuni
		<p>ma'lumotlarni ko'rsatish.</p> <p><b>5. Affillanganlik va aloqalar (bog'liqlik zanjirlari) tahlili moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragentning boshqa yuridik shaxslar va jismoniy shaxslar bilan affillanganligini aniqlash;</li> <li>– murakkab kontragentlik zanjirlari va o'zaro bog'liqliklarni vizual ko'rinishda taqdim etish;</li> <li>– korrupsiya va soliq risklarini oldindan aniqlashga ko'maklashish.</li> </ul> <p><b>6. Ommaviy (bulk) tekshirish moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– STIR/PINFL ro'yxati bo'yicha ko'p sonli kontragentlarni bir vaqtda tekshirish;</li> <li>– tekshiruv natijalarini eksport qilish (Excel va boshqa formatlarda).</li> </ul> <p><b>7. Integratsiya (API) va o'rnatish moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– hujjatlashtirilgan dasturiy interfeys (REST API) orqali buyurtmachining ichki IT-yechimlariga integratsiya;</li> <li>– ma'lumotlarni tekshirish va boyitishni buyurtmachi tizimlarida avtomatlashtirish;</li> <li>– servisni buyurtmachi veb-saytiga (mijozlar uchun) o'rnatish imkoniyati.</li> </ul> <p><b>8. Hujjatlar va hisobotlar moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragent bo'yicha tekshiruv xulosasini (hisobotini) yuklab olish (PDF va boshqa formatlarda);</li> <li>– ro'yxatdan o'tish va boshqa hujjatlarni yuklab olish imkoniyati.</li> </ul> <p><b>9. O'zgarishlar tarixi va monitoring moduli</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– kontragent ma'lumotlaridagi o'zgarishlar tarixini saqlash va ko'rsatish;</li> <li>– tanlangan kontragentlarni kuzatuvga qo'yish va o'zgarishlar to'g'risida bildirishnoma yuborish.</li> </ul> <p><b>Texnik va nofunktsional talablar:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– tizimning 24/7 rejimda ishlashi, yillik ish barqarorligi (uptime) 99,5% dan kam bo'lmasligi;</li> <li>– bitta so'rovga javob qaytarish vaqti — 3 soniyadan oshmasligi;</li> <li>– ma'lumotlar bazasi manbalardan kamida sutkalik davriylikda yangilanib borishi;</li> <li>– interfeys o'zbek va rus tillarida taqdim etilishi;</li> <li>– veb-brauzer orqali foydalanish hamda mobil qurilmalarga moslashuvchanlik;</li> <li>– ma'lumotlarni himoya qilish, kirishni cheklash va shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik</li> </ul>

<b>№</b>	<b>Asosiy ma'lumotlar va talablar nomi</b>	<b>Ma'lumotlar va talablar mazmuni</b>
		talablariga muvofiqlik.
<b>6</b>	<b>To'lovni amalga oshirish artlari</b>	Bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma hamda hisob-faktura buyurtmachi va ijrochi tomonidan imzolanganidan so'ng, 5 (besh) bank ish kunida to'lov amalga oshiriladi.
<b>7</b>	<b>Xizmat ko'rsatish muddati</b>	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kunida tizim yo'lga qo'yilib, foydalanish huquqi taqdim etiladi va Shartnoma so'mmasidan to'liq foydalangunga qadar
<b>8</b>	<b>Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish</b>	Ijrochi tomonidan ish va xizmatlar to'liq bajarilganidan so'ng qabul qilish-topshirish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolanganidan keyin bajarilgan deb hisoblanadi.
<b>9</b>	<b>G'olib tashkilot</b>	Tanlov yakuni natijasiga ko'ra aniqlanadi.
<b>10</b>	<b>Bog'lanish uchun aloqa telefonlari</b>	+998781509339 (565)
<b>11</b>	<b>Baholash mezonlari</b>	Tanlov natijalari eng kam narx taklifi mezonlari bo'yicha baholanadi

kelishuvchilar: O'.Meyliyev, B.Shamsiev, Z.Orifkhajayev

<https://hujjat.brb.uz/?pin=pJ74eS23&id=917ed479-6666-4445-976f-bdf2adc48d01>